“Voqelikdagi ma'lum hodisalarning mag'zini chaqib beradigan, umumlash-tiruvchi... har qanday voqeyi hodisadan yuksak... har qanday tarixdan ishonchliroqdir” (*V.G.Belinskiy*)²⁹. Belinskiyning ushbu ta'rifi bevosita obrazlarga berilgan bo'lib, albatta, obraz tushunchasi badiiy adabiyotning asosini tashkil etadi. Badiiy adabiyotda obraz deyilganda, atrofdagi barcha voqea-hodisalarning yozuvchining ijod namunalarida aks ettirilishi tushunilsa ham, uning markazida inson obrazi turadi. Shuning uchun ham badiiy obraz deganda, avvalo, inson timsolini tushuniladi va u adabiyotda hal qiluvchi ro'l o'ynaydi.

Obrazlar qaysi badiiy tur janrida yaratilishiga ko'ra uch turga bo'linadi:

1. Epik obrazlar –epik janrda yaratilgan asar obrazlarda hayot voqea-hodisalari keng va atroflicha talqin etiladi, ular o'zlarining epiklik xususiyatlariga ega bo'ladilar.
2. Lirik obrazlar – bunda voqelik inson kechinmalari, o'y fikrlari, hissiyotlari orqali o'z ifodasini topadi.
3. Dramatik obrazlar –bundavoqelik obrazlarning sahnadagi harakatlari orqali ifodalanadi.³⁰

Roman janri epik turga mansub bo'lib quyidagi tahlil qilinayotgan obrazlarimizning barchasi epik obrazlar hisoblanadi. Ularning barchasida yozuvchi Yuy Hua ma'lum ijtimoiy fikr, ma'lum g'oyani mujassamlashtirishga intiladi.

Asar qurilishida tutgan o'rniga qarab obrazlar quyidagicha turlargabo'linadi: asar voqealarining markazida turib, asar syujetini harakatga keltiradigan va oxirigicha rivojlantiradigan, asar bosh g'oyasini o'zida tashaydigan shaxslar bosh obraz yoki bosh qahramon deb yuritiladi.

²⁹ X.Umarov “Adabiyot nazariyasi” Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti uchun darslik , Toshkent “O'qituvchi” 2011y, 125 bet

³⁰ X.Umarov “Adabiyot nazariyasi” Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti uchun darslik , Toshkent “O'qituvchi” 2011y, 34- bet

Ushbu bobimizda asarning bosh hamda ikkinchi darajali obrazlarini tahlil qilamiz.

Asarning bosh obrazlari bo'lib Fu Guy hamda uning ayoli Jya Jen hisoblanadi. Quyida ushbu bosh obrazlarning o'ziga xos xususiyatlari, asarda keltirilgan o'rinlarining muhimligi hamda ularda ifodalangan insonparvarlik g'oyalari tahlil qilinadi.

Asarda keltirilgan Chun Sheng, Yu Ching, Ar Si va Feng Sya kabi ikkinchi darajali obrazlar o'z obraz xususiyatlari, asardagi voqealar ketma-ketligida ishtirok etishiga ko'ra ma'lim ijtimoiy vaziyatni va bunga yozuvchining munosabatini ochib berish vazifasini o'tagan.

2.1 “Tiriklik” romanida bosh obrazlar tahlili va ularda insonparvarlik g'oyalarining aks ettirilishi

Yuy Fu Guy– bu asarning bosh obrazidir. Ushbu qahramon asarning boshida boy badavlat va katta yer-mulk egasi bo'lgan oilaning yakka-yu yagona merosxo'ri bo'ladi. U yoshligida ko'p narsalarga aqli ojizlik qilgan, bor vaqtini esa qimorbozlik hamda ayollar bilan aysh-u ishratga bag'ishlaydigan obraz sifatida tasvirlangan. Kunlarning birida u bor boyligini qimorda Long Er ismli qimorbozga yutqazadi va uning oilasi hech vaqosiz qoladi. U bor boyligini boy bergach, ko'p o'tmay otasi vafot etadi. Uning rafiqasi esa har qanday qiyinchilikka qaramay erini tashlab ketmaydi. Fu Guy endi butunlay o'zga insonga aylanadi, u endi oilasi, ikki nafar farzandi va onasi uchun javobgar hisoblanadi. Kunlarning birida onasi og'ir betob bo'lib qoladi va u onasi uchun shifokor olib kelgani shaharga boradi. O'sha yerda baxtga qarshi Guo Min Dang³¹ askarlari tomonidan qo'lga tushadi va bir necha yilga ular qo'lida asir bo'lib janglarda qatnashadi. Bir amallab uyga qaytganda esa onasi olamdan o'tgan, oilasi juda nochor hayot kechirayotgan bo'ladi. Endi u oilasi bag'rida tinch va xotirjam hayot kechirishni orzu qiladi. Ammo hayot unga yana

³¹1919-yil 10-noyabrda tashkil etilgan Xitoy Xalq partiyasi, asoschisi Sun Yat Sen, 1949-yil XXR tashkil etgunga qadar faoliyat yuritgan.

bashavqatlik qiladi, u birin- ketin farzandlari, rafiqasi, nabirasini ham tuproqqa topshiradi va oxir-oqibatda u o'zining yolg'izgina sigiri bilan birga hayot kechiradi.

U o'z qo'llari bilan barcha yaqinlarini, do'stlarini tuproqqa topshiradi. Xo'sh, u endi yolg'izlikdan azob chekadimi, hayotga bo'lgan qiziqishini butunlay yo'qotadimi!? Yo'q u hayot sinovlarini jasurlik bilan qarshi oladi, mayli barcha yaqinlari undan oldin bu yorug' dunyoni tark etdi, endi u bu hayotni tark etayotganda xotirjam ketishi mumkin. Ushbu obraz timsolida biz jasurlikni ko'rishimiz mumkin. U shunday deydi: “人是为活着本身而活着的，而不是为了活着之外的事物所活着”³²。Ya'ni inson bu hayotga kelgan ekan, uning vazifasi yashamoqlik, har qanday vaziyatda yashashda davom etmoqlikdir. Hayotdagi eng asosiy vazifa bu — yashamoqlik, tirik qolmoqlikdir, o'zining hayotini har qanday sharoitda yashab o'tmoqlikdir.

Ushbu obraz timsolida biz insonparvarlik g'oyalari hamaks etganini ko'rishimiz mumkin, Fu Guy shunday qahramonki, u hayotida hech kimdan nafratlanmaydi. U nafaqat o'z oila a'zolariga mehribon, balki atrofidagi insonlardan ham o'z yordamini ayamaydi. Uning rafiqasiga bo'lgan mehribonchiligi ham tahsinga loyiq. Yoshligida ko'p beboshliklar qilgan Fu Guy endi umrining oxiriga qadar o'z oilasiga vafodor er, oilasining tayanchi bo'lib o'tadi. Ushbu obraz orqali yuksak insoniy fazilatlar oddiy hayotiy qiyinchiliklar qurshovida yorqin ifoda etilgan. Quyida asarda keltirilgan ushbu parchani ko'rib chiqamiz.

“U qimirlamasdan yotadi, men uning to'yib ovqat yeyolmaganidan ozib ketgan yelkalarini quchdim. Uning joni uzilgandi. Men o'z ko'zlarimga ishonmasdim, nahotki shu mening o'glim bo'lsa? Ertalab uning egnida onasi tikib bergan yangi ko'ylak bor edi. Yana yig'lab yubordim. To'satdan ko'zim yonimda ko'z yosh to'kib turgan jismoniy tarbiya muallimiga tushdi. Shundagina men o'g'limning nimadan vafot etganini undan so'rab bildim. Jahl ustida yonimdaturgan shifokorni do'pposlay

³²活着/余华着。-3 版。-北京：作家出版社，2012.8（2015.11 重印）110 页

boshladim.O'qituvchi meni tutib qoldi, u kuchli edi, unga kuchim yetmasdi. Yonimizga yaxshi kiyingan, ko'rinishidan amaldorga o'xshagan odam kelib so'radi:

- Siz Yu Chingning otasimisiz?

Men unga e'tibor bermasdan yonimda turgan shifokorga qarab haliyam baqirishda davom etardim.Amaldor o'qituvchiga meni qo'yib yuborishni buyurdi, borib shifokorni alamimdan chiqqunimcha do'pposladim. So'ngra qarshimda turgan amaldorning yoniga borib unga ham qattiq musht tushurdim, o'qituvchi yana meni tutib qoldi.

- Axir bu kishi Liu janoblari bo'ladi, qishloq raisi!
- Menga aynan u kerak, hozir u mendan ko'radi!

O'sha payti amaldor menga qaradi va dedi:

- Fu Guy, bu men Chun Shengman, quroldosh do'sting.

Men endi uning yuziga tikilib qaradim va dedim:

- Chun Shen o'zgarib ketibsan.
- Fu Guy meni seni ham o'lgan deb o'ylabman.

Ikkalamiz ham urush davrini eslab yig'lab yubordik.So'ngra ikkalamizning ham tirik ekanligimizni ko'rib jilmaydik, birdan narigi honada jonsiz yotgan o'g'lim yodimga tushdi. Men unga shunday dedim:

- Chun Sheng, mening bittagina o'g'lim bor edi.

U chuqur xo'rsindi va dedi:

- Qanday qilib bunday bo'ld, FuGuy?
- Chun Sheng endi sen menga bitta jon qarzsan, keying hayotingda uni qaytarasan.

Men Yu Chingning yoniga qaytdim. Uni qo'llarimga ko'tarib uyga olib ketdim. Keyin charchab uni yelkamda ko'tarib ketdim, ammo uni yuzini ko'rgim kelardi. Uni yana qo'llarimga oldim. Qishloqqa yaqinlashganim sayin, yuragimdagi dard og'irlasha borardi. Jya Jen og'ir betob, u bu dardni ko'tarolmaydi deb o'yladim.

Hozircha buni Jya Jenga aytmalikka qaror qildim. To'g'ri qabriston tomonga yo'l oldim. O'z qo'llarim bilan og'linga qabr qazib, ammo uni qabrga solishga irodam yetmasdi. O'g'limni asta bag'rimga bosdim. So'nggi bor uning yuzlari, qo'llarini siladim, ular juda sovuq edi. Uni o'z ustboshimga o'rab dafn etdim. Ko'z oldimga uning yangi tug'ilgan payti keldi, 13 yil ham yashamadi bolam bechora. Jya Jen uni dunyoga keltirdi, ammo zum o'tmay qabrga qo'ydi. So'ngra ota-onam qabrlariga yuzlandim va dedim:

- Ota, ona, men sizlarga Yu Chingni olib keldim, men unga also rahm qilmadim, sizlar unga mehribon bo'linglar.

Yo'lda uyga qaytyotganimda ertalab shu yo'llardan yugurib maktabga ketgan Yu Ching ko'z oldimga kelardi, endi u hech qachon bu yo'llardan yugurib o'tmasligini o'ylab ko'z yosh to'kardim. Uyga yetib kelganimda allaqachon kun yorishgandi. Ostonada Feng Sya turardi, u hali ukasi olamdan o'tganini bilmasdi, men ularga Yu Ching kasalxonada holsizlikdan boshi aylanib yiqildi, kasalxonada yotibdi dedim. Jya Jen nega ko'zlarim qizarganini so'radi, men unga kechasi bilan uxlamay Yu Chingning yonida o'tirdim shunga bo'lsa kerak dedim. Har kuni ishdan keyin, Yu Chingni ko'rgani ketyapman deb qabriston tomon borib, uning qabri yonida ko'z yosh to'kardim. Shu tarzda kunlar o'tib borardi. Kunlardan bir kuni Jya Jen uni yelkamga ortib aylantirib kelishimni so'radi, kasallik uni ancha nimjon qilib qo'ygan o'zi yura olmasdi. Jya Jen menga g'arb tomonga qarab yurishni aytdi, men oyoqlarim esa also u tomonga yurishni istamas, boshqa yo'nalish tomon yurardi. Shunda Jya Jen asta quloqlarimga pichirlab shunday dedi:

- Fu Guy men Yu Ching olamdan o'tganini bilaman, meni uning yoniga olib bor.

U o'g'lining qabri oldida uzoq o'tirdi, bechoraning qabrni quchoqlashga ham kuchi etmas edi, faqat barmoqlari bilan qabrni silardi. Men o'g'limni onasi bilan vidolashishiga yo'l qo'ymaganimga qattiq afsuslanayotgan edim.³³

Ushbu keltirilgan parchadan biz ikki insoniy yuksak fazilatlarni ko'rishimiz mumkin. Ulardan biri kechirimlilik, ikkinchisi esa mehribonlik va sabr-bardosh.

Yozuvchi ushbu fazilatlarni Fu Guy obrazida mujassamlashtirdi. Yuqorida keltirilgan parchani o'qir ekanmiz, eng avvalo uning kechirimlilik xususiyati haqida to'xtalib o'tamiz. Farzand dog'i dunyodagi eng og'ir dardlardan biridir, o'zi tirik bo'la turib farzandini tuproqqa topshirish juda og'ir. Farzandining o'zga insonlarning bee'tiborligi, ahmoqligi tufayli nobud bo'lganini bilgan Fu Guy ulardan o'ch olishga intilmaydi, ularni jazolashga urinmaydi. Uning farzandi Chun Shengning rafiqasi tufayli olamdan o'tgandi, ammo u Chun Shengga nafrat so'zlarini aytmaydi. Faqatgina noilojlarcha "Chun Sheng, mening bittagina o'g'lim bor edi." deya oladi xolos. Uning bu ishi qo'rqqoqlik emas, aksincha donoligi va ulkan qalb egasi ekanligidan dalolatdir. U farzandi uchun katta miqdorda tovon puli undirishi mumkin edi, ochlik yillari hamma bir parcha nonga zor, hech kimning qorni to'yib ovqat yemas edi o'sha paytlari, ammo u pullarni ham rad etadi. U hech kimdan hech narsa ta'ma qilmaydi, hech kimdan nafratlanmaydi ham, bu sof insoniy fazilatdir. Fu Guyning kechirimliliigi insonparvarligidan dalolatdir.

U doimo oila a'zolari uchun tirgak bo'ladi. Farzandidan judo bo'lgan ota o'z dardini rafiqasi bilan bo'lishishi mumkin edi, shunda uning dardi biroz bo'lsa ham yengilashardi. Lekin, Fu Guy o'zidan ko'ra rafiqasining sog'ligini o'ylaydi. Shu siz ham bedavo dardga chalinib, to'shakka mixlanib qolgan rafiqasining dardini yanada og'irlashtirishni istamaydi. Bu uning sabr-bardoshli va oilaparvar ekanligini ko'rsatadi. O'zidan ko'ra o'zgalar to'g'risida ko'proq qayg'urishini ko'rsatadi.

Jya Jen – bu asar bosh qahramoni Fu Guyning rafiqasi, asarning bosh qahramonlaridan biri. U shahardagi guruch savdosi bilan shug'ullanuvchi

³³ Жить / Ю. Хуа — «WebKniga», 1992 г. стр. 53

savdogarning yakka-yu yagona qizidir. Fu Guy uni bir ko'rishdayoq sevib qoladi. Jya Jen ungaturmushgachiqadi. Ammo Fu Guy Jya Jenga uylanganidan so'ng, borgan sari qimorga hamda maishatparastlikka berilib boraveradi. Jya Jen esa erining xiyonatlari har qancha bo'lsa chidaydi, uni also tashlab ketmaydi va sabr bilan kutadi. Ushbu asar qahramoni juda sabr toqatli, mehnatkash hamda vafodor ayol timsolida namoyon bo'ladi. U ko'rinishidan go'zal va latofatli ayol. O'z eriga nisbatan o'ta itoatkor hamda sabrli, asli kelib chiqishi boy oiladan bo'lishiga qaramasdan, boylikga ruju qo'ymagan va tarbiyali qiz bo'ladi. Bor boyligini qimorda boy berganini eshitgan qaynotasi kelib qizini Fu Guyning uyidan olib ketadi. Kuyovining nojo'ya, mavjud odob-axloq qoidalariga to'g'ri kelmaydigan hatti-harakatlaridan charchagan qaynота endi qizining boshqa bu xonadonga qadam bosmasligiga umid qiladi. O'sha paytda Jya Jen bir qizning onasi va ikkinchi farzandiga homilador bo'ladi. Ammo ko'p o'tmay o'g'il farzandli bo'lgan Jya Jen farzandi bilan Fu Guyning yoniga qaytadi va uni umrining oxirigacha tark etmaydi. Ushbu ikki obraz bir-birini to'ldiradi. Ularga hayotda ko'p narsa kerak emas, ular uchun yaqinlari sog'-salomat va qornilari to'q bo'lsa yetarlidir. Ular har qanday hayot sinovlarida bir-birlariga dalda bo'ladilar.

Quyidagi asardan olingan parcha Fu Guyning tilidan keltirilgan bo'lib, Jya Jenning naqadar oqila rafiqa ekanligiga keltirilgan misol bo'la oladi.

“Mening ayolim Jya Jen, albatta, mening shaharda bosib yurgan no'to'g'ri qadamlarimdan xabardordir, Jya Jen yaxshi ayol, mening bu dunyoda shunday yaxshi bir ayolga uylanganligim, balki, mening o'tkan hayotimda amalga oshirgan yaxshi ishlarim tufaylidir. Jya Jen menga nisbatan doimo itoatli rafiqa bo'lgan, men ko'chada aysh-uishratga berilib yurgan paytlarimda u hammasini ichiga yutgan, menga bir og'iz ham shikoyat qilmagan, uning bu odati onamga juda o'xshaydi.

Men shahardagi hurmacha qiliqlarim bilan haddimdan juda oshib ketgandim, Jya Jen, albatta, mening bu harakatlarimdan o'ta norozi, qalbi g'amga to'la edi. Kunlardan bir kuni uyga qaytgach, u menga har doimgidek taom keltirdi: 4 xil

idishda barchasi turli xil sabzavotlardan tayyorgan taomlar, u yana menga to'ldirib may ham quyib berdi-da, o'zi esa mening yonboshimda jilmayib ovqatlanishimni kuzatib o'tirdi. Uning menga qarab sirli jilmayib turishi, menda qandaydir shubha uyg'otdi, ammo qancha harakat qilmayin, uning o'zini bunday tutish sababiga aqlim yetmasdi. Undan bugun nega o'zini bunday tutayotganini so'radim, ammo u javob bermadi, uning yuzida hamon o'sha sirli tabassum bor edi.

Ushbu 4 xil taomning barchasi sabzavotli taomlar bo'lib, biri ikkinchisiga o'xshamas edi, lekin taomlarning hammasining tagida bir xil qilib katta-kichik tog'ralgan go'sht bor edi. Avval boshida bunga e'tibor bermadim, eng so'nggi taomga qo'l urdim, uni qarangki u taomda ham sabzavotlardan so'ng huddi avvalgilari kabi katta-kichik to'g'ralgan bir xil go'sht bo'laklari chiqdi. Birdan qotib qoldim, boshimga birov gurzi bilan urgandek bo'ldi, so'ngra esa birdan kulib yubordim. Men uning nima demoqchi ekanligini bilgandim. U menga tushuntirmoqchi bo'lgan falsafasini tushungandim: men ko'chada orqasidan yurgan ayollar garchand ko'rinishidan turli tuman bo'lishmasin, aslida ularning hammasidan bir xil narsani xohlayman. Men unga:

- Sening bu falsafangni aslida men ham yaxshi bilaman.

Buni tushunishga tushunaman, ammo o'zimni bundan to'xtatib qololmayman.

Jya Jen shunday ayol edi, qalbida qanchalar mendan norozi bo'lmasin, ammo sirtida menga buni also sezdirmas, aksincha turli tuman aylanma yo'llar bilan meni to'g'ri yo'lga solishga harakat qilar edi.³⁴

Ushbu keltirilgan parchadan Jya Jenning eriga nisbatan qanchalar sabrli, itoatli ekanligi ko'rishimiz mumkin. Yuragida qanchalar norozi bo'lmasin ammo buni aslo o'zgalarga bildirmagan, shikoyat qilmagan. Donishmand rafiqa bo'lib, turmush o'rtog'ining barcha qiliqlariga sabr qilgan.

³⁴活着/余华着。-3 版。-北京：作家出版社，2012.8（2015.11 重印）32 页

Jya Jenning yana bir xususiyati, kechirimliligi, o'zgaralar dardini ko'rgach o'zining dardi har qancha og'ir bo'lmasin unutadi, kechirishga tayyor. Uning yolg'iz o'g'li Yu Ching Fu Guyning safdosh do'sti vao'sha paytda qishloqdagi katta mansablardan birini egallab turgan shaxs Chun Shengning ayoliga qon berish natijasida ko'p qon yo'qotish va shifokorlarning bee'tiborligi tufayli 12 yoshida vafot etadi. Chun Sheng ham aslida ko'ngli toza inson edi. Jya Jen ancha paytgacha uni kechirmaydi. Taqdir charxpalagi aylanib Chun Shengning boshiga og'ir kunlar tushadi, barcha oila a'zolaridan ayriladi va vidolashuv uchun Fu Guyning uyiga rozi-rizolik so'rab keladi. Va Fu Guyga o'zini o'ldirmoqchi ekanini aytadi, shunda Jya Jen uyidan yugurib chiqadi va Chun Shengga shunday deydi:

“Chun Sheng, sen nima bo'lganda ham yashashing kerak, sen bizning oilamizdan bir jon qarzsan, sen o'sha jonni o'z joning bilan qaytar, sening joning bizning omonatimizdir.”³⁵

Jya Jen obrazida 50-60-yillarda Xitoy jamiyatida yashagan ayollar timsoli jamlangan bo'lib, ushbu obrazning romandagi o'rni kattadir.

Avvalo, ushbu obraz oqila rafiq va sevimli ona timsoli, hech qachon o'z yaqinlarini tark etmaydigan ayol timsoli. Fu Guyning rafiqasi Jya Jenning asar davomida o'z eriga bo'lga katta ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Fu Guyning boy badavlat yer egasiligi paytidan to kambag'al ijarachi dehqon bo'lgan davrigacha, boylikda va kambag'allikda, hayot qiyinchiliklariga uchragan paytida ham asarning boshidan oxiriga qadar u erining yonida bo'ladi. Butun qalbi va vujudi bilan munosib rafiq vazifasini bajaradi.

Ona sifatida ushbu obrazning farzandlari Feng Sya va Yu Chingga ta'siri ham kuchlidir. Fu Guyning majburiy tarzda Gomindan askarlari tomonidan urushga olib ketilgan 2 yil ichida, u qari qaynonasi va ikki farzandi bilan yolg'iz qoladi.

³⁵活着/余华着。-3 版。-北京：作家出版社，2012.8（2015.11 重印）98 页

Qaynonasini tashlab ketib qolmaydi, unga g'amxo'rlik qiladi, ikki farzandini yolg'iz o'zi tarbiyalashda va boqishda davom etadi. Eri bedarak ketgan ayolning butun oila javobgarligini o'z bo'yniga olishi, har qanday kuchli ayol uchun ham og'ir vazifadir.

Ikkinchidan, ushbu obraz kelib chiqishidan badavlat oilaga mansub bo'ladi. Asar boshida u shunday tanishtiriladi: "Boy oilada tug'ilgan Jya Jen, hali o'quvchilik paytlaridayoq majburlab Fu Guyga turmushga berishadi. Ular yashagan davr jamiyati uchun bu nikoh juda munosib hisoblanardi, chunki kelin-kuyovning har ikkalasi ham boy xonadon farzandlari edi. U davrda yashagan ayollar o'zlarining bo'lajak turmush o'rtog'larini o'zlari tanlash huquqiga ega emas edilar. Konfutsiy ta'limotiga asosan, ayol kishi turmushga chiqishdan oldin otasiga, turmushga chiqgach eriga, eri vafot etganidan keyin esa o'g'liga itoatda bo'lishi kerakligi ta'kidlangan. Shunga ko'ra Jya Jen o'z turmush o'rtog'ini o'zi tanlay olmas edi, Xitoyda shunday maqol bor, agar xo'rozga turmushga chiqsang xo'rozning, itga turmushga chiqsang itning aytganini qilasan."³⁶ Jamiyatda amalda bo'lgan bunday udumlar, Jya Jenning shunday fojeaviy mashaqqatli hayotining sababchilaridan biridir.

Uchinchidan, itoatkor rafika, turmushga chiqqach doimo eriga itoatda bo'ladi. Homilador ahvolidagi eri har kecha qimor o'ynaydigan qimorxonaga boradi va tiz cho'kib erini bu yo'ldan qaytarmoqchi, uni uyga olib ketmoqchi bo'ladi. Jya Jenning bu ishidan qattiq jahli chiqqan Fu Guy uni barchaning yonida kaltaklab uyga qaytarib yuboradi. Qorong'u ko'chada u yolg'iz o'zi ko'z yosh to'kib uyga qaytadi. Fu Guy o'sha paytlari umuman Jya Jenning his-tuyg'ulariga e'tibor bermas edi. Fu Guy bor mol-mulkini qimorda yutqazganidan so'ng ham u vafodor va itoatliligacha qoladi va eriga shunday deydi, "Siz bundan keyin qimor o'ynamasangiz bo'lgani, hammasi yaxshi bo'ladi."³⁷ Kuyovining bor boyligidan ajralganini eshitgan qaynotasi qizini majburlab olib ketadi, ammo ko'p o'tmay farzandi 6 oylik bo'lgan paytda Jya Jen qaytib keladi.

³⁶ Жизнь / Ю. Хуа — «WebKniga», 1992г. 12

³⁷ Жизнь / Ю. Хуа — «WebKniga», 1992г. 17

To'rtinchidan, Jya Jen va Fu Guyo'rtasidagi muhabbat. Quyidagi parchani ko'rib chiqaylik :

“Jya Jen kasallikka chalindi, u suyaklar zaifligi – bedavodardga chalingandi, o'zining hech ishga qilolmasligini bilgan Jya Jen qattiq hijolat bo'lar, har kuni takror-takror menga bizlarga og'irligi tushayotganligini aytardi. Kasalligi bedavoligini bilib u hatto xursand bo'ldi, davolanishi bilan u yana o'zining bizga og'irligi tushushidan qo'rqardi, kasallik chog'ida shikoyat qilmas, og'riqlarga jimgina sabr qilardi. Men unga ish qilishiga ruhsat bermasdim, u esa bundan o'zini yanada nochor sezar edi.”³⁸

Jya Jen og'ir hastalikka chalingach butun oila unga g'amxo'rlik qiladi. Bu insoniylikning yuksak ko'rinishidir. Ular bir-birlariga og'irlik tushurmaslikga, qiynalayotganlarini o'zgalarga sezdirmaslikga harakat qiladilar.

2.2 Romandagi ikkinchi darajali obrazlar tahlili

Chun Sheng romandagi ikkinchi darajali obraz. U asar bosh qahramoni Fu Guyning urushdagi quoldosh do'sti. Uni urushga olib ketishgan vaqtda u hali 15-16 yoshli o'smir yigit bo'ladi. Chun Shengga nisbatan yoshi kattaroq bo'lgan Fu Guy unga akalik qiladi. Urush yillari ular bir-birlariga dalda bo'lib, qadrdon do'st bo'lib qolishadi.

Chun Sheng yosh bo'lishiga qaramasdan aqllidir. Urushdan qaytgach u katta lavozimni egallaydi, qishloq raisiga aylanadi. Lekin madaniy inqilob davrida barcha kapitalizm davrini boshidan kechirgan amaldorlar kabi qattiq tazyiqqa uchraydi, oxir-oqibatda o'z joniga qasd qiladi. Ushbu obrazga ta'rif beradigan bo'lsak, u jasur va halol. Fu Guyning yolg'iz farzandi uning rafiqasini qutqaraman deb, bu hayotdan ko'z yumadi. Shundan so'ng, u umrining so'ngiga qadar o'zini aybdor his qiladi va qo'lidan kelgancha Fu Guy va uning oilasiga yordam berib keladi.

³⁸Жить / Ю. Хуа — «WebKniga», 1992г. 44

Feng Sya- asar bosh qahramoni Fu Guyning qizi, Fu GuyGomindan askarlari tomonidan jangga olib ketilgan paytda qattiq hastalikga chalinadi va ushbu hastalik asorati tufayli kar va soqov bo'lib qoladi. Yosh bo'lishiga qaramay, oilasiga yordam beradi. O'zi gapira olmasa ham hamma narsani tushunadi. Yoshi katta bo'lgan sari, yanada aqlli bo'lib boraveradi. Ukasi Yu Chingning maktabga chiqadigan payti kelganda, uning maktabga chiqish harajatlari qoplash uchun ota-onasi uni boshqa oilaga berib yuboradilar, u bir necha oy o'zga oilada xizmat qiladi. Kunlardan bir kuni u uyiga qochib keladi, Fu GuyvaJya Jen uni qaytib jo'natishmaydi, har qancha qiynalishmasin uni o'zlari bilan olib qolishadi. U voyaga yetgach Ar Si ismli shaharlik yigitga turmushga chiqadi. Uning eri unga juda mehribon, uni yer-u ko'kka ishonmasdi. Afsuski, ushbu baxtli juftlikning quvonchi uzoqqa cho'zilmaydi. Farzandini dunyoga keltirayotganda, ko'p qon yo'qotish tufayli olamdan o'tadi.

Ushbu obraz romandagi ikkinchi bosh ayol obrazi hisoblanadi. Uning timsolida eski jamiyatdagi o'smir yosh qizlarning obrazini ko'rish mumkin. U yosh bo'lishiga qaramasdan jasur va mehnatkash. Garchi til zaboni bo'lmasa ham o'z haqini himoya qiladi. Quyida asardan keltirilgan ushbu parchani ko'rib chiqamiz.

“Feng Sya men bilan har kuni dalaga sabzavot izlagani borar edi. Barcha yerlar allaqachon tozalanib bo'lingan, ba'zida kun bo'yi birorta ham sabzavot topa olmasdik. Ochlikdan rangi zafaron tusga kirgan, kurakni har safar yerga urganda uning tanasi ham zaiflikdan chayqalib tushardi. Qizim shikoyat ham qila olmas edi, u faqatgina ishlashni bilardi.

U hamma yerga mening ortimdan ergashib borardi. Men unga boshqa joyni kovlashni buyurdim. Shunda bizning ovqat topish imkoniyatimiz ko'payar deb o'ylagandim, keyin esa bunday qilganimga afsuslandim.

Uning yonida qishloqdoshlarimizdan biri Van Si ham ishlayotgan edi. Umuman Van Si yomon inson emas edi, men urushga ketgan yillarim doimo Jya Jenva oilamga yordam berib turgan. Lekin muttasil davom etgan ochlik u kabi hammani holdan toydirgandi. Ochlikdan odamlar barcha narsa qilishga tayyor edilar. Vanihoyat, Feng

Sya sabzavot topdi, shu payt uning yonida ishlayotgan Van Si qo'lidagi sholg'omni yulib oldi. Feng Sya oz topilmasini qaytarib olishga uringanda Van Si ovozining boricha baqirdi, barchaning ko'ziga Feng Sya birovning narsasini tortib olayotgandek ko'ringan edi. Men yugurib borib ularni ajratdim, qizim ko'z yoshlarini artgancha imo-ishoralar bilan nima bo'lganini tushuntirdi. Odamlar atrofimizga to'planishdi, ular Van Sidan aslida nima voqea bo'lganini so'rashardi. U esa o'zini huddi jabrlanganlardek ko'rsatibshunday dedi:

- Albatta, u mendan tortib oldi, ochlik o'z yo'liga, ammo, odam vijdonini unutmashida.

Men javob berdim:

- Feng Syaning vijdoni bor, Van Si agar sabzavotni sen topgan bo'lsang ol, bo'lmasa bu narsa baribir buyurmaydi!

Van Si haddidan oshib ketdi va shunday dedi:

- Ana, qizingni o'zi gapirsin nima bo'lganini.

Albatta u qizim gapira olmasligini juda yaxshi bilar edi. Feng Sya og'zini ochti-yu, ammo, gapirolmay yig'lab yubordi. Van Si e'tibor ham bermay orqasiga o'girilib ketayotgan edi, Feng Sya qo'lidagi ketmon bilan unga tashlandi. Van Si orqasiga o'girilib qizimga qattiq musht tushurdi. Feng Sya o'zini o'nglollmayyiqildi, men esa jahl ustida Van Siga tashlandim.

Brigadir yugurib keldi va dedi:

- Sizlar bu yerda nima qilyapsizlar!? Feng Sya o'g'irlik qilmaydi, Van Sini ham o'g'irlik qilganini hech kim ko'rgani yo'q. Sabzavotni ikkiga bo'lamiz, Van Si sabzavotni menga ber.

Van Si o'zini eshitmaslikka olardi ammo, noiloj uni berdi. Boshliq sabzavotni olib ikkiga bo'ldi, bo'laklardan biri kattaroq, ikkinchisi kichkina edi. Shunda u kattaroq bo'lakdan ozginasini kesib o'ziga olib qoldi, qolgan ikki bo'lakni men va Van Siga

berdi. Albatta, yarimta sabzavot bilan butun oilani boqib bo'lmaydi, lekin o'sha paytda biz uchun har bir bo'lak qadrli edi.”³⁹

Yuqoridakeltirilganparchanitahlilqilarekanmiz, yozuvchiengavvaloushbuparchadaFengSyaningojizbo'lishigaqaramasdanhaqiqatuchunkurashuvchan,jasurobrazekanliginitasvirlagan. U o'z haqqi uchun kurashadi, uni o'zgalarga berib qo'ymaslikka intiladi.Aytish mumkinki, u nafaqat o'zi, balki, oilasi uchun ham harakat qilgandi.

Ushbu keltirigan parchadan adib 50-yillarda hukm surgan ochlik davrini ham tasvirlab o'tgan.O'tkan asrning 50-yillari Xitoy tarixida keyinchalik katta talofatlar keltirgan “Katta sakrash” siyosati o'tkazilgan, ushbu siyosat o'sha paytdagi kommunistik partiya raisi Mao Ze Dong tomonidan o'tkazilgan bo'lib, XX asrda II Jahon urushidan so'ng eng ko'p qurbon keltirgan tarixiy voqea hisoblanadi. 1958-1960-yillarda o'tkazilgan ushbu siyosat tufayli 20 milliondan 40 milliongacha bo'lgan aholi halok bo'ladi. Qishloq xo'jaligida qabul qilingan no'to'g'ri qarorlar millionlab aholining ochlikdan nobud bo'lishicha olib keladi. Dastavval tashkil qilingan umumiy oshxonalar oxir-oqibatda millionlab aholini boqa olmay qoladi, insonlar bir kosa guruchli bo'tqaga zor, bir dona sabzavot uchun bir-birlarini go'shtini yeyishga tayyor ahvolga keladilar. Xalq kommunalari tashkil etiladi, Mao Ze Dong hayotini o'rgangan fransuzjurnalistlaridan biri Jan Emil Vidal Xitoydagi ushbu vaziyatni shaxsan o'zi borib kuzatadi va uni shunday tasvirlaydi: “Kommunaning har bir a'zosi, uning oilasi qanday guruhdagi ishchi kuchi bo'lmasin, boshqoli mahsulotlar bilan ta'minlanangan, ular nafaqat guruch vaboshqa oziq-ovqat mahsulotlari bilan, balki kiyim-kechak, to'y va dafn marosimlari uchun qilinadigan harajatlar bilan ham ta'minlangan.”⁴⁰

Yu Ching – asar bosh qahramoni FuGuyning o'g'li, uning ikkinchi farzandi.U dunyoga kelgan kunidan to umrining oxirigacha kambag'allikda hayot kechirib, ochlik davrining barcha mashaqqatlarini tortadi.U hali onasining qornidaligi

³⁹Жить / Ю. Хуа — «WebKniga», 1992 стю 49

⁴⁰ В. Шапинов «большой скачок и народные коммуны» <http://communist.ru>

paytidayoq Fu Guyning oilasi bor boyligidan mahrum bo'lib, kambag'allikka mahkum etilgan edi. Yoshligidan ota-onasining og'ir mehnatini ko'rib katta bo'lgan Yu Ching tabiatan mehribon, sabrli va mehnatkash farzand bo'ladi. U ayniqsa kasallik tufayli til-zabonidan ayrilgan opasiga juda mehribon bo'ladi. Ota-onasi Yu Chingning o'qishiga pul ajratish maqsadida opasi Feng Syani boshqa bir oila qaramog'iga berib yuborgan vaqtida o'qishga bormayman deb qaysarlik qilib turib oladi. U nafaqat atrofidagi insonlarga balki, jonivorlarga ham mehribon bo'ladi. Otasi Fu Guy unga olib bergan ikkita qo'zichoqni bor mehrini berib parvarish qiladi.

Asardagi quyidagi parchani keltirib o'tamiz: "Yu Ching 2-sinfga o'tganda bizning oilamizning moddiy ahvoli ham ancha yaxshilanib qolgandi. Feng Sya ham ancha ulg'ayib qolgan, onasi va menga dala ishlarida yordam berardi. Men Yu Ching uchun ikkita qo'zichoq sotib oldim, o'sha paytda u 10 yoshda edi. Har kuni erta tongda turib maktab vaqtiga qadar qo'zichoqlari uchun bir quchoq o't terib kelardi, bunday yoshda bolalarning ertalab uyg'onishlari ancha qiyin, ammo, nachora Yu Chingsiz qo'zichoqlarining ahvoli qanday kechardi. Keyin u tezda nonushta qilib maktabiga jo'nar edi. Tushlik payti maktabdan yugurib kelib, avval qo'zichoqlariga o't terib berar so'ngra o'zi ham tezda ovqatlanib maktabi tomon jo'nardi. Shunday qilib u kun bo'yi 50 li⁴¹ dan ko'proq masofani chopib o'tardi."

"Uylardagi barcha oziq-ovqatni umumiy kommunalarga oilb ketishdi, eng afsuslanarlisi ular Yu Chingning ikkita qo'zichog'ini ham olib ketishdi. Albatta, hech kimga o'z chorvalaridan ajralish fikri yoqmagan edi, ammo nailoj. Yu Ching ham ancha paytgacha qo'zichoqlari oldidan keta olmadi va yilqilarni parvarish qilish uchun javobgar bo'lgan Van Sidan ulardan har kuni xabar olish mumkinligi haqida so'rardi. Axir ularga Yu Chingning qancha mehnatini singgan edi.

⁴¹ Li-Xitoyuzunliko'lchovbirliklaridanbiri, 1 li =500m. В.И.Горелов "Грамматика Китайского языка" Москва "Просвещение" 1982ст 13

Tushlik mahalida barcha oshxonaga bir qator bo'lib navbatga turar edi. Brigadir aldamagan edi, oshxonalarda ovqat keragidan ortiq bo'lib, undan xohlaganingcha tanavvul qilishing mumkin edi.

Ammo tushlik vaqti Yu Chingni aslo topib bo'lmas edi, qo'zichoqlaridan ayrilganiga qaramay har kuni 3 mahal ular uchun o't terib borar, ular ovatlanib bo'lgunicha yonlarida turib kutar, qo'zichoqlari uchun terilgan o'tni boshqa qo'ylar yeb qo'ymasin deb havotir olardi. Qo'zichoqlar o'tlarinin yeb bo'lgandan keyin o'zi kelib ovqatlanardi.”⁴²

Yuqorida keltirilgan parchadan Yu Chingda mehribonlik va biror ishni bajarsa uni sidqidildan bajara olish hislatlari bor ekanligini ko'rishimiz mumkin. U hayvonlar uchun shunchalik mehribonchilik ko'rsatar ekan, uning insonlarga bo'lgan mehrini cheksizligini tasavvur qilishimiz mumkin. U yosh bo'lishiga qaramay qat'iyatli va oriyatli obraz sifatida tasvirlangan. Uning ana shunday yordamga muhtojligi oxir-oqibatda uning hayotiga zomin bo'ladi. U ota-onasining og'ir hayot kechirayotganini bilar, onasi Jya Jenkasallikka chalinib betob bo'lib qolgach hatto maktabni tashlab ketmoqchi ham bo'ladi. Asarning quyidagi parchasini keltirib o'tamiz.

“Jya Jen betob bo'lib qolgach endi Feng Sya yana ham ko'proq dalada mehnat qilishiga to'g'ri kelardi. Yaxshiyamki qizim hali kun bo'yi davom etgan og'ir mehnatdan so'ng yana har tong yangi quch-quvvatlar bilan uyqudan turardi. Yu Ching ham bizga dala ishlarida yordam berardi. Kunlardan bir kuni ishdan qaytayotganimizda u to'satdan menga shunday dedi:

- Dada, men allaqachon juda ko'p iyeroglif yozishni bilaman.
- Balli, o'g'lim!
- Mening o'rganayotgan iyerogliflarim butun umrga yetadi!

Uni maqtanayapti deb o'yladim va unga unchalik ham e'tibor bermasdan shunday dedim:

⁴²Жить / Ю. Хуа — «WebKniga», 1992 ст 39

- O'g'lim sen hali yana iyerogliflarni o'rganishda davom etishing kerak.
- Men boshqa maktabga borishni xohlamayman.

Birdan jahlim chiqib ketdi, aslida Jya Jen to'shakka mixlanib qolganidan keyin o'zim ham Yu Chingni maktabdan olib qolish haqida o'ylagan edim. Lekin, Jya Jenni xafa qilmaslik uchun bu fikrimdan qaytgan edim, uning Yu Chingning hayotini barbod qilayapti deb o'ylashanini xohlamagan, biz kabi o'g'limizning ham savodli bo'lishini, o'qish va yozishni o'rganishini xohlagan edim. Va o'g'limga dag'dag'a qilib shunday dedim:

- Agar maktabga bormasang, o'zim seni bo'g'zingdan olaman. Bu gapingni men boshqa eshitmay!

Shunday deyishga dedim-u, ammo bunday deganimga afsuslandim. Nima bo'lganida ham Yu Ching oilasi uchun maktabni tashlashga qaror qilgan edi. Men xursand bo'lishni ham, xafa bo'lishni ham bilmasdim, 12 yoshda o'g'lim barcha narsani tushunar edi. Shundan keyin unga yana mehrim oshdi va uni boshqa qattiq koyimaslikka qaror qildim.

Ertasi kuni men shaharga sabzavot sotgani bordim. Uyga qaytayotganda o'g'limga sovg'a tarzida 5 dona konfet sotib oldim. Bu mening o'g'limga qilgan ilk sovg'am edi.”⁴³

Ushbu parchadan shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, asarda tasvirlanayotgan qiyinchilik va ochlik davri Yu Ching kabi yuzlab bolalarni hali bola chog'laridanoq ulg'ayishga, huddi kattalar kabi fikrlashga o'rgatib qo'ygan edi. Ular bolalik nimaligini bilmasdan og'ir mehnatlar ostida katta bo'ldilar, ota-onasi tomonidan goh-gohida sotib olingan bir necha dona shirinlik ular uchun allaqachon katta sovg'a hisoblanardi. Ularning ko'pchilik qismi hatto maktabga ham bora olmaganlar, chunki bunga ularning oilalarining qurbi yetmagan. Yu Chingning ana shunday bolalardan biri edi. Albatt, bu davr fojeasida Fu Guy yoki Jya Jenni

⁴³Жить / Ю. Хуа — «WebKniga», 1992 ст. 45

farzandlariga yetarlicha sharoit yaratib bermaganlikda ayblab bo'lmaydi. Yozuvchi yosh obraz Yu Ching va unig fojeali o'limi timsolida 40-50 yillar ijtimoiy hayoti va unda yashagan insonlarning achinarli hayotlarini juda ta'sirli tarzda keltirib o'tgan. Yuqoridagi boblarda Yu Chingning o'limi tafsilotlarini ham keltirib o'tganman. U o'z o'qituvchisiga yordam berish uchun kasalxonaga eng birinchilardan bo'lib yugurib boradi, o'sha paytda o'z o'limi tomon oshiqib borayotganini qayerdan ham bilsin bola bechora. Qon berish uchun tartibni buzib barchadan oldinga turib olgani uchun avval uni qatorning eng oxiriga o'tkazib yuboradilar, bundan bola bechora qattiq hafa bo'ladi. Vaqt o'tib borar, ammo hech kimning qoni to'g'ri kelmas, bundan shifokorlarning xunobi oshardi. Shunda u bir hamshiraning yoniga yugurib boradi, o'zining qonini tekshirib ko'rishlarini o'tinib so'raydi. Yu Ching nafaqat o'z oilasi, jonivorlari balki, begonalar uchun ham o'z jonini ayamagan personaj sifatida yorqin tasvirlanadi.

Ar Si - Asar bosh qahramoni Fu Guyning kuyovi, qizi Feng Syaning turmush o'rtog'i, shaharlik, nogiron – bir oyog'i kaltaroq, yuk tashuvchi bo'lib ishlaydi. U ota-onasidan yetim qolgan bo'lib yolg'iz o'zi yashaydi. Shaharda uyi bor. Ushbu personaj asarning yorqin qahramonlaridan biri. Yozuvchi unig timsolida halol, kamsuqum, g'amxo'r va insonparvar inson obrazini ifodalagan. U Feng Syani qattiq sevib qoladi, uning ota-onasiga o'zinikidek munosabatda bo'ladi. O'zi kambag'al bo'lishiga qaramasdan, qarz olib bo'lsa ham, Fu Guyning so'zlarini yerda qoldirmay Feng Sya uchun dabdabali to'y marosimini uyushtiradi. Qishloqdagilar ancha vaqtgacha ularning to'y marosimlarini yuzlarida tabassum bilan eslab yuradilar. Ammo, rafiqasi Feng Sya olamdan o'tgach og'ir tushkunlikka tushib qoladi, chunki u rafiqasiga qattiq o'rganib qolgan edi. Rafiqasidan keyin u faqatgina farzandi Ku Gen uchun yashab, mehnat qiladi.

Asarda Fu Guy hamda Ar Silarning birinchi uchrashuvlari tasvirlangan parchani keltirib o'tamiz:

“Oradan uch kun o’tib Vang Ar Si uyimizga keldi, bir oyog’i nogiron bo’lgani uchun, boshini chap tomonga hiyol egib yurardi.

Vang Ar Si french⁴⁴kiyib olgan, ko’rinishi juda xushbichim edi. Agar nogiron bo’lmaganida huddi shaharlik partiya a’zosining o’zi bo’lardi. Jya Jen uning kelishiga alohida tayyorgarlik ko’rdi, o’zining eski ko’ylagini yuvib, tozalab Feng Syaga yangi ko’ylak tikib berdi. Ar Si kelganda Feng Sya onasining yonida karavatda uyalib, yerga qarab o’tirardi. Yorqin qizil rangli chipao⁴⁵unga juda yarashgan edi.

Jya Jen bo’lajak kuyoviga qarab quvonchdan jilmayardi. U o’zi bilan bir shisha aroq va gul olib kelgandi. Xonaga kirib kelishi bilan aylanib devorlarni tomosha qila boshladi, men uni va Ar Sini uyimizga olib kelgan brigadirni o’tirishga taklif qildim. Ar Si stulga o’tirdi, brigadir esa ishlari borligini aytib bizlarni tark etdi. Men brigadirni kuzatib qo’ydim.

Qaytib kelib, Ar Sining yoniga stulga o’tirdim. Men uning aroq olib kelganiga juda hijolat bo’layotgan edim, chunki u juda qimmat turar, o’zim ham bir necha yildan beri uni ta’tib ko’rmagan edim. Unga shunday dedim:

- Sen ko’p harajat qilib yuboribsan, bir necha o’n yillardan beri aroq ta’tib ko’rmagan edim.

Ar Si mening bu gapimga javoban shunchaki boshini bir necha marta silkitib qo’ydi ammo, hech nima demadi va o’zi hali hamon uyimiz devorlariga ko’zini olazarak qilib qarab turardi. Uning bu harakatlari meni bir oz noqulay ahvolga solib qo’ydi. Jya Jen ham buni sezdi va shunday dedi:

- Biz oddiygina hayot kechiramiz, ammo bisotimizda tovuqlarimiz va qo’yimiz bor, shularni sotib Feng Syaga to’y qilamiz.

⁴⁴中山装 – xitoylar tomonidan Sun Yat Sen kiyimi deb ataluvchi erkaklar kostyumi, ko’p yillar davomida Xitoyda urf bo’lgan. Большой китайско-русский словарь, Пекин, 1985, ст. 398

⁴⁵Chipao-Xitoy milliy ayollar ko’ylagi .Большой китайско-русский словарь, Пекин, 1985, ст. 540

Ar Si indamay yana bir bor bosh silkib qo'ydi. Biroz o'tirgach ketishga tayyorlandi, u hatto qizimizga qaramadi ham, qizimizdan ko'ra ko'proq uyimizdagi devorlarga qaradi. Jya Jen ma'yus jilmayib unga shunday dedi:

- Men yurolmayman, afsuski seni kuzatolmayman.

Tashqariga chiqqach men undan sovg'alaringni olib ketasanmi deb so'radim, ammo u bir jilmaydi-da uyimizning tomiga bir qarab so'ng hovlimizni tark etdi. Men uyga kirdim, judayam jahlim chiqardi.

- O'zi bir nogiron bo'lsa ham juda injiq yigit ekan, uyimizning barcha tomonini qarab chiqdi-ya....

Jya Jen bechora xo'rsinib shunday dedi:

- Uni ham ayblab bo'lmaydi...

Feng Sya ham kuyov unga qayrilib qaramaganligini sezdi, xonaga kirib kiyimlarini almashtirib, dalaga ketdi.

Kechqurun uyimizga brigadir keldi va so'radi:

- Xo'sh, kuyov qanday ekan?

Men sekin bosh silkib dedim:

- Bizning oilamiz uning uchun judayam nochorlik qildik.

Ertasi kuni dalada ishlayotganimda yonimga qo'shnilarimdan biri kelib menga Ar Sining qaytib kelayotganini aytdi. Yo'lda besh-olti yigitning arava sudrab Ar Si bilan birgalikda bizning uyimiz tomon ketayotganini ko'rdim. Nima bo'layotganini tushunmasdim.

Men ularga yetib oldim, Ar Si menga qarab shunday dedi:

- Tomning ustidagi qamishlarni almashtirish kerak, yana uylarning devorlarini bo'yagini bo'yoq ham olib keldim.

Uning aravasida yana turli asbob-anjomlar, kichkina stulcha va uning ustiga go'sht ham bor edi. Ar Sining o'zi yana ikki shisha ichimlik ham ko'tarib olgandi.

Men endigina Ar Si kecha nima uchun uyimizni bunchalik sinchkovlik bilan ko'zdan kechirganini tushundim, u uyimizni ta'mirlash haqida o'ylayotgan ekan.”⁴⁶

Ushbu yuqorida keltirilgan parchadan Ar Sining qanday inson ekanligini haqida xulosa chiqarishimiz mumkin. U juda kamtar inson, o'z hatti-harakatlarini o'zgalarga ko'z-ko'z qilishni istamaydi, soddadil va kamgap. Birinchi uchrashuvdanoq u Feng Sya va uning oilasini yoqtirib qoladi va hali ularning qiziga uylanmasdan turib qoladi ular haqida qayg'ura boshlaydi. Uning sinchkovlik bilan uyning har bir burchagini ko'zdan kechirganligi also, mol-dunyoga e'tibor berganligidan emas edi. Ar Si bu xonadonga qadam qo'yishi bilanoq, uning nochor ahvolda yashashini tushundi. Ertasi kuni erta tongdanoq yordamga oshiqdi. U karavatda kasal holda yotgan Jya Jenni ham yodidan chiqarmadi, o'tirganda unga qulayroq bo'lishi uchun yog'och stulcha yasab kelgan edi. Qaynotasining tomini yopish uchun o'z uyining qamishlaridan olib kelgan edi.

Feng Sya olamdan o'tgach o'g'lini yolg'iz o'zi parvarish qiladi. Baxtsiz voqea tufayli o'g'li Ku Genuch yoshga to'lganda tosh bosib qolishi sababli olamdan ko'z yumadi.

Long Er - asardagi ikkinchi darajali obrazlardan biri bo'lib, u juda ayyor shaxs timsolini ifodalagan. Uning yoshligidan nimalar bilan shug'ullanganligi yoki qanday oilaga mansubligi batafsil keltirilmagan. U qimorni yaxshi o'ynaydi, o'ynaganda ham juda ayyor va xushyor o'yinchi hisoblanadi. Uning raqiblari odatda o'zlarining yutqazayotganlarini his qilmaydilar. U kam pul mablag'lari tikilga o'yinda yutqazib, aksincha, yutuq katta bo'lganda esa raqiblarining bor boyligini qo'lga kiritadi. U Fu Guy va uning oilasining qashshoqlashib qolishining asosiy sababchilardan biri,

⁴⁶. Жить / Ю. Хуа — «WebKniga», 1992 стр.59

qimorda u Fu Guyning ota-bobolaridan qolgan 100 mu⁴⁷ yerini va unga qo'shib hashamatli uy joyini ham yutib oladi. U keyinchalik Fu Guyga o'z yerlaridan ijaraga berib, katta yer egasiga aylanadi. Keyinchalik Xitoyda yer islohatlari o'tkazilib, barcha yerlar ijarachi dehqonlarga bo'lib berilgach, u bunga chiday olmay hukumatga qattiq qarshilik ko'taradi. U madaniy Inqilob davrida eski an'anana va urf-odatlarni qo'llab-quvvatlovchi shaxs, katta yer egasi sifatida xalq oldida sazoyi etilib, toshbo'ron qilinib so'ngra qatl etiladi.

Aslida Long Erning hech qanday aybi yo'q edi, u faqatgina o'z huquqlarini himoya qilishga intilgandi. Ammo madaniy inqilob davrida yuz bergan islohotlar sababli u qatl ettirilib hayotdan ko'z yumadi. Boshqacha aytganda qatag'on qurboniga aylanadi. Uning o'rnida har qanday inson Fu Guy ham bo'lishi mumkin edi. Yozuvchi yer egasi Long Erning o'limi timsolida boshqa minglab qatag'on qurbonlarining va mavjud ijtimoiy-tarixiy sharoitning fojeasini ochib berishni maqsad qilgan.

⁴⁷Mu- Xitoy yer o'lchov birligi, 1 mu 0.066 gektarga tog'ri keladi. В.И.Горелов "Грамматика Китайского языка" Москва "Просвещение" 1982 г ст. 15

Xulosa

Ushbu bitiruv malakaviy ishida XX asr Xitoy yozuvchi Yuy Huaning hayoti va ijod yo'li, Yuy Huaning Xitoy adabiyotiga qo'shgan xissasi, yozuvchi asarlarining tarbiyaviy ahamiyati va dolzarbligi chuqur tahlil qilindi. Shuningdek, yozuvchi asarlarining yozilish uslubi va o'ziga xos yo'nalishi tadqiqot qilindi. Yozuvchi ijodini to'liqroq yoritib berish maqsadida uning dunyoga mashxur romanlaridan biri "Tiriklik" romani alohida tadqiqot obyekti sifatida tanlab olindi, undagi bosh va ikkinchi darajali obrazlar, obrazlarda keltirilgan insonparvarlik g'oyalari tahlil qilindi. Ushbu bitiruv malakaviy ishidan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalar qilindi.

Birinchidan, yozuvchi Yuy Huaning Xitoy adabiyotiga XX asrning 80-yillarida kirib kelishi, ijodining ilk o'n yilligida avangard yo'nalishida yorqin ijod etganligi, uning romanlaridagi realism g'oyalarining aks ettilishi o'rganildi.

Ikkinchidan, 90- yillarga kelib Yuy Hua ijodida ijodiy burilish davri o'rganilib,.. o'ziga xosligi bilan Xitoy adabiyotining durdona asari bo'lib hisoblanib kelayotgan "Tiriklik" romani tadqiqot obyekti sifatida tanlab olinib, roman bitiruv malakaviy ishi maqsad vazifalariga ko'ra o'rganildi. 90-yillarning eng yaxshi romanlari 10 taligiga kiritilganligi aniqlandi. Tadqiqot mobaynida yozuvchi uslubining o'ziga xos jihatlaridan shundaligi namoyon bo'ldiki, u o'zining boshqa zamondosh kasbdoshlari o'z romanlarida ifodalashga jur'at etmagan o'sha davr Xitoy jamiyatining yomon illatlari bo'lmish ayollar mavqeyining pastligi, zo'ravonlik, shavqatsizlik, sudxo'rlik, nochorlik, adolatsizlik, behayolik kabilarni qo'rqmasdan yoritib bera olgan.

Uchinchidan, yozuvchi Yuy Huaning asarlari nafaqat adabiyot va balki, tarix nuqtai nazaridan ham dolzarb ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Jumladan, uning "Tiriklik", "Og'a-inilar" va " Qon sotuvchi Suy San Guan qissasi" romanlarida XX asrning 2-yarmida Xitoy tarixida yuz bergan muhim ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, Madaniy Inqilob davri, Xitoyda yuz bergan fuqarolar urushi, Mao Ze Dun tomonidan o'tkazilgan "Katta Sakrash" siyosati va ularning Xitoy xalqiga

yetkazgan talofatlarini o'zida aks ettirildi. Bu uning asarlarining ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qilgan.

To'rtinchidan, uning realistik yo'nalishda yaratilgan romanlari tarbiyaviy ahamiyatga ega, uning asarlarining bosh qahramonlari oddiy insonlar, ammo o'z matonati va hayot qiyinchiliklariga nisbatan ko'rsatgan optimistik qarashlari bilan o'quvchilarga o'rnak bo'ladi va ularda yashashga kuch beradi. Jumladan, uning "Tiriklik" romanining bosh qahramoni Yuy Fu Gui asar davomida ochlik, urush, inqilob va kambag'allik davri qiyinchiliklarini o'z boshidan o'tkazadi. Uning barcha yaqinlari undan avval bu yorug' dunyoni tark etadilar, ammo shunda ham Fu Gui o'zida yashashga bo'lgan ishtiyoqni yo'qotmaydi va hayotga nisbatan aslo nafrat nazari bilan qaramaydi. Asarlarida ifodalangan inson jasorati va insonparvarlik g'oyalari shunisi bilan dolzarbki, hozirgi kunda hayot qiyinchiliklariga chiday olmay o'z hayotidan voz kechayotgan yoshlarga o'rnak bo'la deb umid qilamiz.

Beshinchidan, romandagi obrazlar badiiy talqinida dialog, monolog, portret vositalarini xitoy tilidan o'zbek tiliga tarjima qilib misollar bilan ifoda etishga harakat qildik va romandagi ba'zi obrazlarni turli xususiyatlarini ochib berishga harakat qildik.

Malaka ishi yozish mobaynida Yu Hua ijodining amaliy ochilmagan qirralarini yoritishga harakat qildik.

Mazkur ish nafaqat xitoy adabiyoti uchun, balki xitoy tili va madaniyatiga qiziquvchilar uchun yangi ilmiy izlanishlar yozilishida amaliy jihatdan ahamiyat kasb etadi, deb umid qilib qolamiz.

Mazkur hikoyani o'qigan har qanday bag'ritosh o'quvchining ham ko'ziga yosh keladi va o'ziga hayotiy xulosalar chiqarib oladi deb umid qilamiz.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abu Bakir O'rozov "O'zbekiston – Xitoy: strategik sheriklik va do'stlik munosabatlarini yanada rivojlantirish yo'lida", O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi rasmiy saytidan olingan ma'lumot. T., 13 may 2017 yil
2. X.Umarov "Adabiyot nazariyasi" Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti uchun darslik, Toshkent "O'qituvchi" 2011y, - B. 35-222.
3. Большой китайско-русский словарь, Пекин,1985, с. 398-540
4. Виноградов А.В. Китайская модель модернизации. Поиски новой идентичности. - М., 2006
5. В.И.Горелов "Грамматика Китайского языка" Москва "Просвещение" 1982. с. 13-15
6. В. Шапинов «большой скачок и народные коммуны» <http://communist.ru>
7. Жить / Ю. Хуа — «WebKniga», 1992 с. 12-59
8. Русско-узбекский словарь, Москва,1954. с. 707
9. 活着/余华着。-3 版。-北京：作家出版社，2012.8（2015.11 重印）67 页
10. 先锋小说特点-以余华小说为例/王丁丁. 中国论文，2015.05.21 第 2 页 [网页]
地址: www.wenxue.quanxi.cc
11. 余华-执着先锋者/彭涛 -湘湖. 2008 年第 2 期，第 66 页
12. 余华作品集/余华，中国社会科学出版，1995 年，第 1 版，第 383 页
13. 许三观卖血记代后记•叙述中的理想/余华，江苏文艺出版社，1996 年版，第 105 页
14. 民间与历史/余华，文学评论家，1992 年第 6 期，第 38 页
25. 余华论/张罗应，华侨大学，2004 年
16. 余华转型前后的小说世界/朱炎皇，中南大学，2008 年。
17. 语言与语言学词典，上海，1984 年。第 320 页

18. 现代汉语方言大词典-上海, 1999. 第 520 页
19. 韦恩·布斯: 《小说修辞学》, 芝加哥大学出版社, 1983年第2版
20. 陈平原: 《中国小说叙事模式的转变》, 上海人民出版社, 1988 年 3 月第 1 版
21. 余华: 《许三观卖血记》, 南海出版公司, 1998 年 9 月第
22. 罗绮卫.浅论余华小说叙事视角的变化, 当代文坛, 2003, (05).
23. 格非: 《小说叙事研究》, 清华大学出版社, 2002 年 9 月第 1 版
25. <http://uz.wikipedia.org/>
26. <http://www.kitay20.ru>
27. <http://zh.wikipedia.org/wiki>
28. www.wenxue.quanxi.cc